

MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITUVCHI BILIM VA
MALAKALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqqa mahorati va madaniyati kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada O'zbekistondagi ta'lim tizimidagi islohotlar va musiqa o'qituvchilarining pedagogik faoliyati haqida so'z yuritiladi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan yirik o'zgarishlar, o'qituvchilarning yangilangan pedagogik malakasi va innovatsiyalarni joriy etish talabi haqida so'z boradi. Musiqa o'qituvchisi faqat musiqiy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki pedagogik mahorat va ilmiy-nazariy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish va o'qituvchilarga yangicha yondashuvlarni taqdim etishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, musiqa o'qituvchisi, pedagogik faoliyat, innovatsiyalar, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash, ilmiy-nazariy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, mustaqil rivojlanish, ta'limga yondashuv

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar, yangilanishlar o'zining ko'lami va ahamiyati bilan muhim voqea sifatida tarixda muhirlanib qolmoqda. Ayniqsa, Respublikamizni mustaqil hayot kechirishi, tenglar ichra tengligi, o'zining kelajagini qurishda ildam qadam tashlab borayotganligi bugungi globalashuv jarayonida o'zining mustaqil rivojlanish yo'lidan sobit qadam tashlab, butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizning 130 yil mustabid tuzum iskanjasidagi hayotidan so'ng ozod davlat sifatidagi ilk faoliyatida kadrlar tayyorlash masalasiga asosiy e'tiborini qaratdi. 1992 yilda mustaqil davlat sifatida "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun O'zbekistonda ilgari erishilgan yutuqlarni saqlab qolish barobarida, eski tizimdan yangisiga o'tishda ko'prik vazifasini o'tagan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarni amalga kiritilishi MDH Respublikalari orasida birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimi va uning mazmun - mohiyatini bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqqan holda mutloqo yangicha dunyoqarash va talabni, qolaversa, yangi bosqichni boshlab berdi. 2020 yil 23 sentyabrda 3-bor O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun g'oyaviy mavkuraviy jihatdan milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish

mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan juda qadrlidir.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan keng islohotlar o'qituvchining o'z ustida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bo'lgan talabni bir qadar oshirdi. Har bir o'qituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bo'lib, hozirgi zamon o'qituvchisi mutaxassisligi modelini loyihalashtirish lozim. O'qituvchining pedagogik faoliyati va mahorati darajasini, amaliy pedagogik vazifalarni hal etish jarayonining ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri asoslanganligi bilan belgilash zarur. Musiqa fani o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilib, ilmiy-nazariy asoslab, o'ziga ma'lum pedagogik prinsiplarni va uni amalga oshirish qoidalarini ishlab chiqadi. Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, umumlashgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy ketma-ketligini ishlab chiqishi, uning pedagogik mahorat cho'qqisini egallaganligini ko'rsatadi. Pedagogik vazifalarni hal etish, pedagogik vazifalarni tahlil qilish, ya'ni o'qituvchilardan aqliy faoliyat usullari – tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritishni talab etadi.

Pedagogik faoliyat – insonlar mehnatining eng murakkab, ma'suliyatli sohalaridan biridir. O'qituvchi yuqori malakali, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk, axloqan sof bo'lishi jamiyat talabidir.

Musiqa o'qituvchisi kasbi insondan doimo o'z shaxsini takomillashtirish, o'zining musiqiy qiziqishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z mutaxassisligi "sirlarini" a'lo darajada bilishi lozim, balki maktabda o'quvchilarning mafkuraviy dunyoqarashlarini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda lozim bo'lgan bilimlarga ega bo'lishi shart.

Musiqa o'qituvchisi:

- musiqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo o'qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);

- nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo'lishi; - musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo'lishi;

- musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;

- dirijyorlik malakalarini ko'rsata olishi;

- musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog'lay olishi;

- musiqa ta'limi va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qituvchisining ilmiy-nazariy tayyorgarligiga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi:

- musiqa fanini ilmiy nazariy jihatdan chuqur o'zlashtirgan holda uning nazariyalari, g'oyalari, qonuniyatlarining mazmun-mohiyatini bilishi, fanning

rivojlanishi, fanda erishilgan yutuqlar, yangiliklar, muammolar, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda izlanishlar natijalaridan xabardor bo‘lib borishi;

- umumiy musiqiy va xususiy tushunchalarni ajrata olishi, ularning musiqiy ta’limda tutgan o‘rnini, o‘quvchilarda shakllantirish yo‘llarini tasavvur qilishi;

- didaktika va tarbiya nazariyasi g‘oyalari, o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplari, o‘qitish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg‘unligi, uzviyligi, ularning uzviyligini ta’minlash yo‘llari bilishi va tahlil qila olishi;

- o‘qitishning turli texnik-didaktik, audio, video, multimediya, On-Layn, prezidentatsion vositalari, mavjud darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini bilishi;

- o‘z kasbiy tayyorgarligi va malakasini muntazam va mustaqil ravishda oshirishning usul va shakllarini bilishi va egallashi;

- o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur, temperament, xarakter, qobiliyatlarini aniqlay olishi, o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi;

- o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy operatsiyalardan o‘quv jarayonida foydalanish;

- sinf rahbari ishining mazmun va mundarijasini, o‘quvchilar ongiga va qalbiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirishning mazmuni, shakli va usullarini bilishi va samarali tashkil etish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Musiqqa o‘qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo‘ladigan me‘yoriy hujjatlar bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi:

- ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta’lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur qilishi;

- musiqqa bo‘yicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashg‘ulotlarni tashkil qilish yo‘llarini;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ilmiyuslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishni;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, musiqqa yo‘nalishida kasbga yo‘llash ishlarini olib borishni;

- musiqani chuqur o‘zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo‘llanilayotgan dasturning, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarining mazmunmundarijasi, DTS, mazkur ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablar, shakl va usullarini;

- musiqani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va

amaliyotga qo'llay olishni;

- musiqadan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni tahlil qilishni;

- musiqani o'qitish konsepsiyasi, metodik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil eta olishni;

- musiqa madaniyati fanining asosiy g'oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni;

- musiqani o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olish;

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo'llay olishni;

- musiqa darslariga qo'yiladigan didaktik talablardan xabardor bo'lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakasini o'zlashtirishni;

- musiqa o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o'zlashtira olishi hamda amaliyotga qo'llash malakasiga ega bo'lishi;

- musiqa o'quv xonalari, laboratoriyalarini namunaviy jihozlash, tegishli me'yoriy hujjatlarni bilishi, jihoz, ko'rgazmali vosita, didaktak va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo'llarini bilishi, ulardan samarali foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M Xo'jageldiyeva Music as a Scinece and its peculiarities International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2021

2. M Xo'jageldiyeva Dutar national instruments and performance methods Analytical Journal of Education and Development, 2021

3. MAHFUZA ERGASH QIZI XO'JAGELDIYEVA Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rne INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION

4. Ходжагельдыева Махфуза Эргаш кызы, Машрабалиева Барно Машрабалиевна ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДУТАР И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ Новости образования: исследование в XXI веке

5. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qiz Panjiyeva Nilufar Kamol qizi The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools Journal of Pedagogical Inventions and Practices 2022/7/13

6. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Chorshanbeyiv Suyunbek Nasriddin o'g'li, THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum

Journal of Innovation, Reforms and Development, 2022/6/30.

7. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes European Journal of Innovation in Nonformal Education 2022/4/27

8. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash Qizi, Chorshanbeyiv Suyunbek Nasriddin Ugli, THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI

9. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Pardayeva Nilufar Kamol qizi MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI 2022/3/28

10. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Sayfiddinova Sevinch Akramovna Dutar National Instruments and Performance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI

11. МЭ ХОДЖАГЕЛЬДЫЕВА, БМ МАШРАБАЛИЕВА ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ ЭКОНОМИКА.